

**XX asr ikkinchi yarmida ASEAN tashkil topishi va Janubi-sharqiy Osiyoda
tutgan o'rni**

Sabina Yakubova Xudayberdi qizi

Annotatsiya

Ushbu tezisdan Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining integratsion jarayonlari, xususan, 1967-yilda ASEAN tashkil topishining mintaqada modernizatsiya va iqtisodiy taraqqiyotga ko'rsatgan ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida siyosiy barqarorlik, iqtisodiy hamkorlik va ijtimoiy modernizatsiya yo'nalishlari alohida o'rganilgan.

Kalit so'zlar: ASEAN, xavfsizlik, integratsiya, qo'shilmaslik siyosati, Singapur Malayziya, Indoneziya

KIRISH

XX asrning ikkinchi yarmi jahon tarixida yangi mintaqaviy integratsiya jarayonlari kuchaygan davr sifatida e'tirof etiladi. Ayniqsa, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari mustamlakachilik davridan keyingi siyosiy beqarorlik va iqtisodiy qoloqlik sharoitida o'z taraqqiyot yo'lini topishga intildilar. Shu jarayonda 1967-yilda tashkil etilgan ASEAN (Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari assotsiatsiyasi) mintaqada mamlakatlarini birlashtirib, ularning o'zaro hamkorligini mustahkamlashda muhim tarixiy qadam bo'ldi. ASEAN tashkil topishi nafaqat siyosiy barqarorlikni ta'minlash, balki iqtisodiy modernizatsiya, ta'lim, texnologiya va sanoat rivojiga turtki berdi. Ushbu jarayon mintaqaning global miqyosdagi o'rni va raqobatbardoshligini oshirdi. Tezisdan ASEAN tashkil topishining sabablari, maqsadlari hamda uning Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari modernizatsiya jarayonlariga ko'rsatgan ta'siri tahlil qilinadi.

ASOSIY QISM

Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari assotsiatsiyasi 1967-yil 8-avgustda tashkil etilgan bo'lib, Indoneziya Malayziya, Tailand, Singapur va Filippin bilan bir qatorda tashkilotning asosiy asoschilari qatoriga kirgan. Sovuq urush avjiga chiqqan paytda tashkil etilgan bu tashkilot, kommunistik davlatlar bilan tarqalishi xavfi ortib borayotgan bir sharoitda, ushbu davlatlarni nafaqat o'zaro nizolarning oldini olishga, balki mumkin bo'lgan tashqi tahdidlarga qarshi kurashishga yo'naltirilgan hamkorlik shaklini yaratishga undadi. Tashkilotning tarixiga to'xtaladigan bo'lsak dastlab ushbu tashkilot 1955-yilda Bangkok konferensiyasi asosida tashkil qilingan bo'lib birinchi mahalliy tashkilot edi. Muhim maqsadlardan biri tashqi aralashuvlarga qarshi yagona front yaratish, mintaqani katta davlatlar o'rtasidagi raqobatdan himoya qilish va a'zo davlatlarning siyosiy barqarorligi hamda iqtisodiy rivojlanishi uchun sharoit yaratish edi. Tashkilotga a'zo davlatlar ko'p holatlarda tashqi dunyoda yuz berayotgan muammolarga aralashmaslik va qo'shilmaslik siyosatini olib borishgan. Dastlabki tashkil etilgan davrlarda ushbu tashkilot hech qanday ijobiy natijalar ko'rsatmagan va

boshqa davlatlar tomonidan past baholangan. Ammo ASEAN tashkiloti o'zining birdamligi va o'zini o'zi keng targ'ib qila olganligi bilan ajralib turardi. ASEANning birinchi rahbarlari asosiy e'tiborni mintaqaviy hamjihatlikni saqlashga harakat qilishdi. Quyida ushbu tashkilotning bir nechta muhim yig'ilishlarini tahlil qilamiz.

1976-yil Balida o'tkazilgan birinchi yig'ilish- ushbu sammitda 4 ta mintaqadagi savdoni rivojlantirishga qaratilgan shartnomalar imzolandi. Ammo ushbu shartnomalarning hech biri kutilgan natija bermadi.

1992-yilda O'tkazilgan Rahbarlar sammitida ASEAN Erkin savdo hududini e'lon qilishdi. (AFTA). Bu o'tmish bilan keskin uzilishni anglatardi. Urg'u kuchliroq iqtisodiy hamkorlikka qaratildi agar alohida istisno qilinmagan bo'lsa, barcha tovarlar savdosi AFTA doirasiga kiritilishi lozim edi.

1997-yilda yuz bergan Osiyo moliyaviy inqirozi ASEAN davlatlariga katta ta'sir o'tkazdi. Rivojlanishga endi qadam qo'ygan bu davlatlar uchun og'ir zarba bo'ladi. 1997-yilda yuz bergan bu inqiroz tashkilotga a'zo davlatlarga ikki asosiy ta'sir ko'rsatdi. Birinchisi- ASEAN davlatlari o'zining tijorat jozibadorligini yo'qotadi va ko'pchilik tomonidan yetarlicha chora ko'rilmaganligi sifatida past baholanadi.

Ikkinchisi-ijobiyroq bo'lib Osiyo moliyaviy inqirozi mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirish zarurligini umumiy qayta ko'rib chiqishga turtki bo'ldi kelajakdagi inqirozlarning oldini olish uchun muvofiqlashtirilgan makroiqtisodiy choralar ko'rish imkoniyatini rivojlantirish zarurati paydo bo'ldi. Bu ASEAN taraqqiyotining to'rtinchi bosqichiga olib keldi. Ushbu bosqich ikki asosiy xususiyat bilan ajralib turardi: birinchisi, iqtisodiy o'sishga tezkor qaytish; ikkinchisi esa, tez o'zgarayotgan mintaqaviy va global muhit fonida o'zining mohiyati va o'ziga xosligini yanada yaxshiroq ifodalash uchun kurash. Bu tijorat siyosati tuzilmasiga ta'sir ko'rsatuvchi ko'plab tashabbuslarning paydo bo'lishiga olib keldi.

XULOSA

ASEAN tashkiloti Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari o'rtasida siyosiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish va mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. 1967-yilda asos solingan bu tashkilot qisqa vaqt ichida mintaqaviy birdamlik va o'zaro ishonchni mustahkamlashga erishdi. Bugungi kunda ASEAN nafaqat a'zolari, balki butun Osiyo–Tinch okeani mintaqasidagi iqtisodiy va diplomatik jarayonlarga faol ta'sir ko'rsatayotgan tashkilot sifatida e'tirof etiladi. Xulosa qilib aytganda, ASEANning muvaffaqiyati — bu a'zo davlatlarning o'zaro hurmat, tenglik va hamkorlik tamoyillariga sodiqligi natijasidir. Tashkilotning tajribasi Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari uchun barqaror taraqqiyotning samarali modeli bo'lib xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. C. M. Turnbull, A History of Singapore, 1819–1975 (Singapore: Oxford University Press, 1977)
2. Michael D. Barr, “Lee Kuan Yew and the ‘Asian Values’ Debate,” Asian Studies Review 24, no. 3 (2000)
3. C. B. Goh and S. Gopinathan, “The Development of Education in Singapore since 1965,” in Toward a Better Future: Education and Training for Economic Development in Singapore since 1965, ed. S. K. Lee, C. B. Goh, B. Fredriksen, and J. P. Tan (Washington, DC: The World Bank and National Institute of Education, 2008)
4. Michael D. Barr, “Lee Kuan Yew: Race, Culture and Genes,” Journal of Contemporary Asia 39, no. 3 (2009)
5. Li Kuan Yu. Uchinchi dunyodan birinchi dunyoga: Singapur tarixi, 1965–2000 yillar. – Singapur: Times Editions, 2000.